

## BUXOROLIK JADILAR TOMONIDAN GERMANIYAGA YUBORILGAN YOSH BUXOROLIK OMONULLA NUSRATILLOYEVNING AYANCHLI QISMATI

**Sobirov Ulug'bek G'ofurovich**

*Buxoro davlat pedagogika instituti  
Pedagogik ta'lim kafedrası o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *ushbu maqolada yosh buxorolik ilmsevar ziyoliylardan bo'lgan Nusratilloev Omonulla Nizomiddin o'g'lining yevropaga o'qishga yuborilishi, uning yevropadago og'ir hayoti hamda unga qarshi qilinga ig'volar haqida yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *yosh buxorolik, ilmsevar, jadid, germaniya ta'limi, quvg'ib, buxoro amrligi, qizil armiya.*

1922 yilning kuzida Germaniyaga tahsil olish uchun yo'l olgan O'zbekistonlik 55 talaba orasida sobiq Buxoro amirligining e'tiborli mulozimlaridan bo'lgan Nusratullo Nizomiddin o'g'lining farzandi Omonullo ham bor edi. Omonullo Nusratullo 1906 yili o'sha vaqtdagi Kitob viloyati begi Nusratullo Nizomiddinov oilasida dunyoga kelgan. 1920 yil Buxoro amiri ag'darilgach, uning otasi qizil armiya bilan kurashlardan birida halok bo'ldi. Amakilari Abdulla, Sadridin va Ne'matulla Nizomiddinovlar amir mulozimlari sifatida Buxoro zaminini tark etadi. Omonulloning bolaligi Kitob va Buxoro shaharlarida kechgan. U dastlab Buxoroda jadid maktabida so'ng madrasada ta'lim oldi.

1922 yil kuzida Germaniyaga jo'natilgan yoshlar qatorida Omonullo Nusratullo o'g'li ham bo'lgan. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish kerakki, Fayzulla Xo'jayev xorijga ketayotgan talabalarning ro'yxatini shakllantirayotganda asosan ota-onalari Muqaddas Buxoro uchun qizil armiya bilan kurashda halok bo'lgan insonlar farzandlari uchun ochilgan "Shahido" maktabi o'quvchilarini ko'proq olishga intiladi. Boisi, shu yo'l bilan bu begunoh bolalarni qizil terrorchilar changalidan saqlab qolishga ham intilgan edi. Omonullo Berlin shahrida to'rt oylik til kursini bitirgach, amaliy tajriba orttirish maqsadida Berlindagi Lyudvig – Le mashinasozlik zavodiga ishga joylashtiriladi. Ma'lum bilim va malakaga erishgach, do'stlari Atoulla Sayfulmulk, Normurod Muhammadshoyev va Muhammad Xo'jayev kabi bir guruh yoshlar bilan Bronshveyge shahriga yo'l oladi. Turkistonlik talabalar bu shahardagi dorixona, do'kon, zavod, fabrika va boshqa korxonalarga ishga joylashadi. Bu yerda o'zlarning amaliy mahoratini yanada oshirish bilan birga fabrikalar qoshidagi maktablarda o'qib, oliy maktablarga o'qishga topshirish uchun o'rta maxsus shahodatnomalarni qo'lga kiritadi. Omonullo Nusratullo Shtreylis shahrida joylashgan Texnika oliy maktabining injener-mexanik fakultetiga o'qishga kiradi.

1928 yil oxirida Omonullo Nusratullo uchun ham sovetlar O'zbekistoni stipendiya berishni to'xtatadi. O'quv yilini zo'rg'a yopgan Omonullo Shtreylis shahridan Berlinga keladi. U 1929 yilning aprel oyida sobiq SSSRga xat yozib, O'zbekiston Xalq maorif komissarligidan so'nggi kursni yakunlab olishi uchun yordam so'rab murojaat qiladi.

Biroq hech qanday javob qaytmaydi. Ilojsiz qolgan Omonullo turkistonlik talabalarning yetakchisi bo'lgan Ahmad Naimdan yordam so'raydi. U Afg'onistonga Buxoro amiri Olimxon va uning mulozimi bo'lgan qarindoshlariga xat yo'llab, yordam so'rashi mumkinligini aytadi. Omonullo keyinchalik "O'zbekistonga qaytishim uchun muammo tug'diradi" degan mulohaza bilan bu fikrni rad etadi. Ayni paytda Germaniyadagi turkistonlik talabalarga siquv avj oldi va ularning arzimagan harakatlari ham antisovet faoliyat deb baholana boshladi. 1929 yilning yozida Ahmad Naim bilan amalga oshirilgan barcha izlanishlari bekor ketadi. Bu paytda Germaniyada qora ish topish ham oson kechmasdi. Omonullo Berlindagi bir arxitektorlar birlashmasiga 80 marka evaziga zo'rg'a ishga joylashadi. Biroq bu pul bilan o'qishni davom ettirishning ilojini topa olmadi. 1929 yil o'qishni davom ettirilmasligi aniq bo'lgach, O'zbekistonga qaytishga qaror qiladi. Omonullo Nusratullo Germaniyada Erika Emilevna Bulman degan olmon qizi bilan oila qurgan edi. Ular birgalikda vatanga qaytadi. Vatan sog'inchi bilan to'lib kelgan yigitni hech kim kutib olmadi. Uning barcha umidlari puchga chiqdi, hatto o'qishini tugallab oliy ma'lumotli diplom olishi uchun ham imkoniyat berilmadi. Ijtimoiy kelib chiqishi jihatidan yot unsur bo'lgan Omonullo Nusratulloni avvaliga hech joyga ishga olishmadi. Ishga olgach esa Moskva, Samarqand, Toshkent va viloyatlararo xizmat safarlari, uning bir joyda qo'nim topishiga imkon bermadi. Oilasi Erika Bulman 1931 yilda "Chirchiqqurilish" tashkilotiga ishga kirib, nemis tilidan dars bera boshlaydi. Biroq har bir qadamini kuzatib yurgan maxsus xizmat vakillari ta'qibidan bezgan Erika 1936 yil o'z vataniga – Germaniyaga qaytib ketadi. Omonullo Nusratullo 1933-1934 yillarda O'rta Osiyo Plan institutida dars beradi. Biroq u yerda ham uzoq ishlay olmadi. Uni germonofil g'oyalarni ilgari surdi, degan bahona bilan ishdan haydashadi. 1935 yilga kelib Toshkent shahrida yashashga to'liq ruxsat olgach, 1936 yildan Toshkent transport temir yo'l injenerlari institutiga ishga kiradi. U endigina o'z hayotini yo'lga qo'ya boshlagan bir paytida, yana notanish kimsalar Omonulloning eshigini qoqadi. 1937 yil 4 sentabr kuni Omonulla Nusratullo aksil inqilobiy tashviqot, aksil inqilobiy tashkilotga a'zolik kabi ayblovlar bilan qamoqqa olindi va uning pasporti, guvohnomalari, 2 ta albom to'la surat, kitoblari, xatlari barcha-barchasi uning jinoyatini isbotlovchi dalillar sifatida olib ketildi. 1937 yil 6 sentabr kuni to'ldirilgan shaxsiy anketasiga ko'ra, bu vaqtda uning oila a'zolari sifatida turmush o'rtog'i o'sha vaqtdagi Hamza teatri aktrisasi Tomat Ziyaxonova, 4,5 oylik qizi Surayyo va singlisi – Hamza teatri aktrisasi Muattar Hamzayevalar nomlari keltirilgan.

1937 yil 20 sentabr kuni o'tkazilgan so'roqda unga qarshi aksilsovet targ'ibot, aksil inqilobiy tashkilotga a'zolik moddalarni qo'llayotganiga Omonullo qarshilik ko'rsatdi va "men 1922-29 yillarda Germaniyada o'qigan talabalar orasida birorta aksil inqilobiy tashkilot bo'lganligiga ishonmayman. SSSRga kelganimdan keyin ham hech bir tashviqot olib bormaganman. Faqat kimlardir mening nomimdan gapirsa javobgar bo'lib yuraman" deydi. 1937 yil 7 dekabr kuni chiqarilgan qarorda biror-bir dalil ko'rsatilmagan holda Omonulla Nusratulloga o'ng trotskiychi, terrorchi, qurolli kuch yo'li bilan hokimiyatga qarshi chiqish uyushtirishga intilgan diversiyachi, degan

ayblarni qo'yib, vatanga xiyonat, harbiy va davlat sirlarini sotish, shpionaj, aksil inqilobiy tashviqot va aksil inqilobiy tashkilotga a'zolik aybini qo'llaydi. Omonulla Nusratulloning "jinoyatchi" ekanini so'zsiz isbotlaydigan tuhmat va uydirmalardan iborat qog'ozlar imzolatilganidan so'ng ish yakuniga yetkazildi. Uning aksilsovet kayfiyatidagi shaxs ekanligini sovet matbuoti sahifalaridan Yaponiya va Germaniya davlatlarining harbiy salohiyati haqidagi yozilgan maqolalarni o'qigani, Germaniyada tahsil olgan kimyogar olim Sattor Jabborning qamoqqa olinganidan norozi bo'lgani kabi misollar bilan "isbotlab" berildi. Omonullo o'ziga qarshi tuhmat va bo'htonlarning barchasini qat'iy rad etdi, biroq bu gaplarga hech qanday ahamiyat qaratilmadi. O.Nusratulloning ayblov bayonnomasida 1922-1923 yillarda Germaniyada "Ozod Turkiston" tashkilotiga a'zo bo'lgan, 1928 yildan Ahmad Naim va Olimjon Idrisiylar foydasiga josus sifatida ishlagan, O'zbekistonda faol gemanofil targ'ibot olib borgan deb, vatanga xiyonat, harbiy va davlat sirlarini sotish, shpionaj, qurolli qo'zg'olonga harakat, davlatga qarshi terakt, aksil inqilobiy tashkilotga a'zolik aybi qo'yilgan. O.Nusratulloning ishi 1938 yil 9 oktabr soat 9:20 dan 9:30 gacha ko'rib chiqildi. "Uchlik" sudida unga o'lim hukmi o'qildi. Sud hukmi o'sha kuniyoq ijro etiladi. 1958 yil 14 avgustda Omonullo Nusratulloning turmush o'rtog'i Tomat Ziyaxonova Moskvaga shikoyat yo'llaydi. Unda erining 1937 yil 6 sentabrda qamoqqa olingani va uning keyingi taqdiri haqida hech qanday ma'lumotga ega emasligini ma'lum qiladi. 1958 yil 23 oktabrdan Omonullo Nusratulloning ishini qayta ko'rib chiqish ishlari boshlab yuborildi. 1958 yilda 19 dekabr kuni bu paytda Muqimiy teatrda aktrisa bo'lgan Tomat Ziyaxonova so'roqqa chaqirilganda: "Omonullo bilan bor yo'g'i bir yildan ko'proq yashaganman, lekin biror marta uning hukumatga qarshi faoliyatini ko'rmaganman. Uni o'z kasbini chuqur biluvchi, halol, vijdonli, keng dunyoqarashga ega, bilimdon inson, deb bilganman" deydi.

1958 yil 19 dekabrda Pedagogika instituti o'qituvchisi Mahmud Akbarov qayta so'roqda quyidagilarni hikoya qiladi. Biz Omonullo bilan Transport institutida birga ishlaganmiz. U mashinasozlik va nemis tilidan dars berar edi. Men u kishini tushunaman. Yevropada ta'lim olgan, sovet turmush tarzini ko'p qabul eta olmas edi. Rostgo'yiligi uchun ko'pchilikka yoqmasdi. U kishi o'ta bilimdon, o'z ishining ustasi, intizomli, haqiqiy ziyoli inson edi. Faqat o'z qarashini bizga tushunarsiz misollar bilan dalillardirdi. Menimcha, shuning uchun ko'pchilik u kishini antisovet kayfiyatga ega deb bilar edi, deydi. Chaqirilgan guvohlarning ko'rsatmalari asosida 1959 yil 20 aprelda SSSR Oliy Sudi harbiy kollegiyasi jinoyat alomatlari yo'qligi uchun Omonullo Nusratulloni oqladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. A'zamxo'jaev S.S. Turkiston muxtoriyati jadidchilik milliy-demokratik davlatchilik g'oyalarining amaldagi ifodasi.-T.: "ma'naviyat", 1999 yil.
2. "Abdurauf Fitrat va jadid adabiyoti (XX asrning 20 yillariga qadar)" Rahimova Gulshan Muhiddin qizi.-1999y.

3. “Buxoro jadidlari”- Nusratillo Naimov- - Toshkent, “Fan” nashr-2000yil.

4. “Buxoro amirligida jadidlar va qadimchilar faoliyati (XIX asr oxiri- XX asr boshlari)” -Jamolova Dilnoza - tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya ishi;- Tosh.2019-yil

5. “Buxoro jadidlari merosi- bebaho boylik”- Sulaymon Inoyatov -Buxoronoma gazetasi 2020-yil 19-fevral 19-son.

6. Gofurovich, S. U. (2024). The System of Education in Schools Was Established by Jadids in Bukhara in 1908-1912. *Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education* (2994-9521), 2(6), 547-549.

7.

[https://www.researchgate.net/publication/380792695\\_BUXORO\\_JADIDLARI\\_V\\_A\\_ULARNING\\_ILM-MA'RIFAT\\_TARAQQIYOTIDAGI\\_O'RNI](https://www.researchgate.net/publication/380792695_BUXORO_JADIDLARI_V_A_ULARNING_ILM-MA'RIFAT_TARAQQIYOTIDAGI_O'RNI)